BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

MAXMUDOV AZIZBEK VALIJONOVICH

DORIVOR O‘SIMLIKLAR TABIIY RESURSLARI DINAMIKASINING ASPEKTLARI VA MUHOFAZA QILISH STRATEGIYASI (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘T 581.143.6:581.9(575.1):581.522.5

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Maxmudov Azizbek Valijonovich
Dorivor o‘simliklar tabiiy resurslari dinamikasining aspektlari va muhofaza qilish strategiyasi (Janubiy O‘zbekiston misolida) …….. 3

Махмудов Азизбек Валижонович
Аспекты динамики природных ресурсов лекарственных растений и стратегия их сохранения (на примере Южного Узбекистана) 31

Maxmudov Azizbek Valijonovich
Aspects of the Dynamics of Natural Resources of Medicinal Plants and Their Conservation Strategy (Based on the Case of Southern Uzbekistan) 61

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....…… 65

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

MAXMUDOV AZIZBEK VALIJONOVICH

DORIVOR O‘SIMLIKLAR TABIIY RESURSLARI DINAMIKASINING ASPEKTLARI VA MUHOFAZA QILISH STRATEGIYASI (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/B244 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich** biologiya fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Xojimatov Olimjan Kaxxarovich** biologiya fanlari doktori, professor
	Usupbayev Adelet Kidikbekovich biologiya fanlari doktori
	Duschanova Guljan Madrimbayevna biologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 30-oktabr kuni soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (90-raqami bilan ro‘yhatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 12-oktabr kuni tarqatiladi.
(2026-yil 12-oktabrdagi 29-raqamli reestr bayonnomasi).

B.A. Adilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash raisi o‘rinbosari,
b.f.d., katta ilmiy xodim

D.T. Xamrayeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash Ilmiy kotibi v.v.b.,
b.f.d., katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash qoshidagi
Ilmiy Seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Hozirgi kunda dunyo miqyosida ma’lum bo‘lgan 390 900 ta gulli o‘simlik turlaridan (POWO, 2026) 50 000 tadan ortig‘i tibbiy maqsadlarda qo‘llaniladi (Latif and Nawaz, 2026). So‘nggi o‘n yillikda rivojlangan mamlakatlarda ham o‘simliklar asosidagi dorivor vositalarga bo‘lgan talab barqaror ravishda ortib bormoqda. Bu esa aholining ularni nisbatan xavfsiz, samarali va iqtisodiy jihatdan maqbul deb baholashi bilan izohlanadi (Njoroge et al., 2010; El-Shabasy 2016; Qari, 2021). Ushbu ijobiy tendensiya bilan bir qatorda, dunyo bo‘yicha taxminan 15 000 dorivor o‘simlik turlari tabiiy populyatsiyalarning haddan tashqari ekspluatatsiya qilinishi, tabiiy yashash muhitlarining qisqarishi hamda global iqlim o‘zgarishi ta’siri natijasida yo‘qolib ketish xavfi ostida qolmoqda (Chen, 2016; Mulugeta, 2024). Bu esa dorivor o‘simliklarni ilmiy asoslangan holda saqlash, ularning resurs potensialini baholash va samarali hududiy muhofaza strategiyalarini ishlab chiqish zaruratini dolzarb ilmiy muammo sifatida ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyoda so‘nggi o‘n yilliklarda dorivor o‘simliklar resurslarini baholash, saqlash va ulardan barqaror foydalanish bo‘yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan barqaror ilmiy yo‘nalish shakllandi. Bu esa alohida va tarqoq tadqiqotlardan o‘simlik resurslarini mintaqaviy darajada tizimli boshqarishga o‘tish jarayonini aks ettiradi (Abdullina, 2001; Alybaeva, 2006; Atayev, 2012; Hisoriev, 2015). Xalqaro tashkilotlar (FAO, UNEP, GEF) ko‘magida 2000-yillardan boshlab mintaqada dorivor o‘simliklarning genetik resurslarini *in situ* va *ex situ* shroitida muhofaza qilish bo‘yicha loyihalar amalga oshirildi (UNEP-GEF, 2010). Lekin, mintaqada so‘nggi 25 yillikda o‘simlik tabiiy resurslaridan tizimsiz foydalanish natijasida, aksariyat iqtisodiy potensiali yuqori bo‘lgan turlarning tabiiy maydonlarining keskin qisqarishiga olib keldi. Ushbu holat *Ferula tadshikorum* Pimenov misolida yaqqol namoyon bo‘ladi: Tojikistonda (Hisoriev, 2015), Afg‘onistonda (Sharopov, 2019) va O‘zbekistonda (Maxmudov, 2025) resurs ahamiyatiga ega bo‘lgan maydonlar deyarli saqlanib qolmagan. Shu munosabat bilan antropogen omillarning biologik obyektlarga, eng avvalo turli stress omillari ta’siriga uchrayotgan iqtisodiy jihatdan muhim o‘simlik turlarining tabiiy resurslariga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston hududi tabiiy floristik xilma-xilligi va geografik sharoitlari jihatidan Markaziy Osiyodagi dorivor o‘simliklarga eng boy hududlardan biri hisoblanadi (Tojibaev et al., 2022; Ibragimov et al., 2026). O‘zbekiston florasi 4385 dan ortiq tomirli o‘simlik turlarini o‘z ichiga oladi (Sennikov et al., 2016), ulardan qariyb 1200 turi dorivor xususiyatlarga ega (Хожиматов, 2021), 112 turi esa rasmiy farmakopeya ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, shundan 70 dan ortig‘i amaliyotda keng qo‘llaniladi (Tojibaev et al., 2024). Hozirgi kunda Janubiy O‘zbekiston hududida xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda faol qo‘llaniladigan 100 dan ortiq dorivor o‘simlik turlari aniqlangan. Bu mamlakat florasidagi yovvoyi holda o‘suvchi turlar umumiy sonining taxminan 2,5 foizini tashkil etadi (Khojimatov, 2023). Shu bilan

birga, O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning tabiiy resurslaridan haddan tashqari foydalanish natijasida *Helichrysum maracandicum, Ungernia victoris, Ajuga turkestanica* (Maxmudov, 2025) va boshqa dorivor turlarning zahiralari qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Jahon ilm-fanida dorivor o‘simliklarni, ayniqsa ularning tabiiy resurslari dinamikasi va saqlanishi masalalarini o‘rganishda hanuzgacha sezilarli bo‘shliqlar mavjud (Takubessi et al., 2025). Tadqiqotlarning aksariyati alohida hududlarda olib borilgan bo‘lib, Markaziy Osiyoning floristik jihatdan boy hududlari yetarli darajada o‘rganilmay qolmoqda (Vihotogbe et al., 2021; Zhang et al., 2024). Uzoq muddatli dala tadqiqotlarining cheklanganligi iqlim va antropogen omillar ta’sirida populyatsiyalar holatida yuz berayotgan o‘zgarishlarni obyektiv baholashni qiyinlashtirmoqda. Dorivor turlarning resurs salohiyati, barqarorligi va zaiflik darajasini baholashning yagona va standartlashtirilgan usullari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ko‘plab tadqiqotlarda ekotizimlar degradatsiyasi, o‘simlik xomashyosining me’yoridan ortiq yig‘ib olinishi hamda yer resurslaridan foydalanishdagi o‘zgarishlar yetarlicha hisobga olinmaydi. Dorivor o‘simliklarni monitoring qilish, baholash va saqlashga kompleks yondashuvning mavjud emasligi ularni muhofaza qilish va barqaror foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Mazkur holatlar O‘zbekiston florasidagi resursbop turlarning toifalarini ishlab chiqish (Maxmudov, 2025), Janubiy O‘zbekiston misolida dorivor o‘simliklar turlarining xilma-xilligini va tarqalishini baholash, hududning ekogeografik (ELC), yer qoplami va landshaft (GLC) xususiyatlarini tahlil qilish orqali raqamli xaritalarini yaratish, dorivor o‘simliklarni *in situ* sharoitida muhofaza qilishning Gap tahlili hamda, komplementarlik tahlili asosida dorivor o‘simliklarni hududiy muhofaza qilish asoslarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bu borada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini[1] “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida qator vazifalar belgilab berildi. Bevosita, O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 21 sentyabrdagi “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi 409-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi”gi PF-4947-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi “Hayvonot va o‘simlik dunyosi ob’yektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi 914-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi “2019–2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 484-sonli Qarori va sohaga oid boshqa hukumat qarorlari ta’minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajda xizmat qiladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF 16-sonli Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[2]. Dorivor o‘simliklarni tabiiy resurslarini aniqlash, kamyob turlar populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash va ulardan oqilona foydalanish hamda muhofaza qilishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalari va oliy ta’lim muassasalarida: Jumladan, Research Center for Medicinal Plant Resources (Yaponiya), Bogomolets national medical university (Ukraina), Sikkim Manipal Institute of Medical Sciences and Central Referral Hospital (Hindiston), Laboratory of Tropical Forest Resources and Environments (Yaponiya), Forest Research Institute (Kanada), Bangladesh Space Research and Remote Sensing Organization (SPARRSO) (Bangladesh), Department of Biology, Faculty of Science, Al-Baha University (Saudia Arabistoni), Пермская Государственная Фармацевтическая Академия (Rossiya), Национальный Фармацевтический университет (Ukraina), Казахский агротехнический университет им. С. Сейфуллина (Qozog‘iston), Department pharmacognosy and chemistry (Qirg‘iziston), Всероссийский научно-исследовательский институт лекарственных и ароматических растений (Kavkaz) kabi markazlarda olib borilmoqda.

Dorivor o‘simliklar resurslarini inventarizatsiya qilish, tabiiy populyatsiyalarning holatini baholash, ulardan barqaror foydalanish hamda biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha olib borilgan dunyo tadqiqotlari natijasida bir qator natijalar olindi, jumladan: ekologik-geografik, populyatsion va geoinformatsion yondashuvlar asosida dorivor o‘simliklarning resurs salohiyatini baholashning zamonaviy usullari (Research Center for Medicinal Plant Resources, Yaponiya), dorivor o‘simliklarning tabiiy populyatsiyalarini monitoring qilish usullari (Bangladesh Space Research and Remote Sensing Organization (SPARRSO), Bangladesh), dorivor o‘simliklar tabiiy zahiralari va foydalanish barqarorligini baholash mezonlari takomillashtirish (Всероссийский научно-исследовательский институт лекарственных и ароматических растений, Kavkaz), antropogen bosim hamda iqlim o‘zgarishlari ta’sirida o‘simlik resurslari degradatsiyasining asosiy omillari (Department of Biology, Faculty of Science, Al-Baha University, Saudia Arabistoni).

Dunyoda kamyob va endem dorivor o‘simliklarni o‘rganish, ularning muhofaza maqomini aniqlash, genetik xilma-xillikni saqlash va bir qator ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: o‘simlik resurslarini barqaror boshqarish tizimlarini ishlab chiqish; dorivor o‘simliklardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini takomillashtirish; tabiiy muhitdan barqaror

[2] Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi http://www.works.doklad.ru, http://www.km.ru, www.dissercat.com, researchgate.net, http://www.fundamental-research.ru, www.webofscience.com, http://ir.librarynmu.com/, https://www.nibn.go.jp/en/activities/medical-herb.html, www.sikkimforest.gov. va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

foydalanish tamoyillarini joriy etish; turli tabiiy-iqlim sharoitlarida o‘simliklar xilma-xilligini saqlash strategiyalarini ishlab chiqish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon miqiyosida dorivor o‘simliklarni o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Turlarning tabiiy resurslarini baholash bo‘yicha R.H. Lemmens et al. (2003), A.M. Tawseef et al. (2021), Md. H. Rahman et al. (2022), Stebel A., (2022), S. Theodoridis et al. (2023), J Xie. et al. (2023), M. Nelly et al. (2024), Q. Wang et al. (2024), Y. Han et al. (2025), Christine A., (2024), A. Alzahrani et al. (2025), tabiiy resurslarni muhofaza qilish va foydalanish bo‘yicha Foster S. (1993), FAO (1997), Sh.L.Chen et al. (2016), F.J. Kia et al. (2018), N.A. Wani et al. (2021), Hu K., (2024), etnobotanik tadqiqotlar K.M. Straus et al. (2016), Xiong Y. et al. (2020), Y.Mekonnen et al. (2022), F. Liu et al. (2023), L. Krstin et al. (2024), Misganaw et al. (2024), J.F. Meniza et al. (2024), D. Tadesse et al. (2025) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

MDH mamlakatlarida dorivor o‘simliklarni tabiiy resurslarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar Н.А. Егошина (2008), В.Н. Саньков (2013), Х.С. Рахмонов (2017), Р.Д. Саттаров (2019), Г.А. Айдарханова и др. (2019), А.М. Черменова (2020), Н.С. Кадацкая и др. (2020), С.Ш. Сагындыкова и др. (2022), К.С. Мураталиева и др. (2023), Н.Г. Геменджиева и др. (2023), korrellayatsion tahlillar В.В. Бухаров и др. (2013), M. Vasko et al. (2023), tabiiy resurslarni muhofaza qilish va foydalanish bo‘yicha O. Mykhailenko et al. (2024), populyatsiyalarni baholash bo‘yicha S. Sagyndykova et al. (2019) tomonidan o‘rganilgan.

Respublikada mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarning rivojlanishi bevosita o‘tgan asrning 80 va 90-yillaridan boshlangan. Bu davrda Т.П. Пулатова (1980), А. Бахиев (1983), Х.Х. Халматов (1984), И.З. Акопов (1990), И.И. Мальцев (1990), С. Даулетмурадов (1991), Х.Х. Ҳайдаров (1992), К.Х. Ҳожиматов (1992, 1995, 1996, 2003, 2004, 2009), Ю. Мурдахаев (1990, 1999) va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. 2000 yildan keyingi davrda А.Ю. Юлдашев (2001), О.К. Хожиматов (2008), Г.Ж. Абдиниязова (2017), ayrim turlarning tabiiy zahiralari bo‘yicha Х.К. Ҳайдаров (2018), А.Н. Хужанов (2019), Авалбоев О.Н. (2019), A.E. Sharipov (2025) A.E. Egamberdiyev (2025) tomonidan amalga oshirilgan. Zamonaviy tadqiqotlar (2015–2025) bevosita prof. O.K. Xojimatov boshchiligida amalga oshirilgan bo‘lib, etnobotanik, introduksiya, fitokimyoviy tarkibiga bag‘ishlangan.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda olib borilgan tadqiqotlar (Eisenman et al., 2013; Sharopov et al., 2015; Xojimatov et al., 2020; Castro et al., 2024; va boshq.) asosan dorivor o‘simliklarning floristik tarkibini inventarizatsiya qilish, ayrim turlarning resurslarini lokal baholash hamda ularning bioekologik xususiyatlarini tavsiflashga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishlar mintaqa o‘simlik resurslarini o‘rganishning muhim va zarur bosqichi hisoblanadi. Shu bilan birga, tadqiqotlarni yanada rivojlantirish turlar resurs salohiyati, ekologik-geografik va landshaft omillari, shuningdek resurslar dinamikasi hamda ulardan foydalanish darajasi

o‘rtasidagi integrativ bog‘liqliklarni hisobga oluvchi kompleks baholashga o‘tishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotda esa dorivor o‘simliklar resurslari ilk bor ekogeografik (ELC) va landshaft (GLC) omillari bilan bog‘liq holda kompleks, ko‘p omilli tizim sifatida qaralib, ularning shakllanish va transformatsiya qonuniyatlari integrativ yondashuv asosida ochib berildi. Resurs potensialini baholashda korrelyatsion tahlilga asoslangan mezonlar hamda ekspluatatsion stressni baholash tizimi joriy etilishi orqali metodologik yondashuvlar sezilarli darajada takomillashtirish imkonini berdi. Toifalash va differensial boshqaruv konsepsiyasi resurslardan barqaror foydalanishning ilmiy asoslangan modelini shakllantirib, Markaziy Osiyo sharoitida dorivor o‘simliklar resurslarini boshqarish bo‘yicha zamonaviy integrativ platformani yaratish imkonini berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Botanika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Madaniy o‘simliklarning O‘zbekiston florasidagi alohida xo‘jalik ahamiyatiga ega yovvoyi ajdodlari populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash va tirik kolleksiyalarini yaratish” (2021-2024) mavzusidagi va “Markaziy O‘zbekistonning resursbop turlarini zamonaviy holatini o‘rganish, istiqbolli turlarning intensiv texnologiyalariga asoslangan plantatsiyalarini yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi davlat dasturlari (2025-2029), hamda “Viloyatlar kesimida iqtisodiy ahamiyatiga ega bo‘lgan tabiiy holda tarqalgan o‘simlik turlarning davlat kadastrini yuritish” (2021–2025) mavzusidagi xo‘jalik shartnomalari bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Janubiy O‘zbekiston misolida dorivor o‘simliklarning resurs potensiali va ularning shakllanish omillarini kompleks tahlil qilish asosida, *in situ* sharoitida muhofaza qilishni asoslash, baholash va toifalashning integrativ tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

resurs xususiyatariga bo‘g‘liq holda, floradagi resursbop dorivor o‘simliklarning toifalashning raqamli tizimini ishlab chiqish;

Janubiy O‘zbekiston ekotizimlarini ekologik-geografik (ELC) xususiyatlari asosida ajratish va tasniflash, shuningdek yerdan foydalanish ko‘rsatkichlari hamda landshaft strukturasini (GLC) tahlil qilish asosida landshaftlar transformatsiyasi dinamikasini baholash;

dorivor o‘simliklar resurs potensialining miqdor ko‘rsatkichlarini turli tuproq tiplarida o‘zgarish dinamikasini baholash;

kamyob hamda xomashyosiga talab yuqori turlar misolida resurs potensialiga ta’sir etuvchi omillarning korrelyatsion tahlili orqali, resurs ko‘rsatkichlarini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

ayrim kamyob turlarning ontogenetik strukturasi va demografik ko‘rsatkichlarini baholash asosida, ularning resurs potensiali ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash;

kamyob va xomashyosiga talab yuqori bo‘lgan, biologik xususiyatlari hamda yig‘ib olinadigan xomashyo tipi bilan farqlanuvchi model turlar misolida dorivor o‘simliklar resurs potensialiga ekspluatatsion stress ta’sirini baholashning model-tipologik shkalasini ishlab chiqish;

dorivor o‘simliklar tabiiy resurslarini boshqarish va foydalanishni tartibga soluvchi raqamli xaritalarini ishlab chiqish;

komplementarlik tahlili va GAP analysis orqali, *in situ* sharoitida muhofaza qilish strategiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: O‘zbekiston florasida tarqalgan 71 tur resursbop dorivor turlar va tabiiy resurslari dinamikasining aspektlari bo‘yicha Janubiy O‘zbekistonning 4 toifaga mansub 28 turdagi dorivor o‘simliklari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Janubiy O‘zbekistonda tarqalgan resurs ahamiyatiga ega dorivor o‘simliklarning tabiiy resurslari shakllanishining ekologik va geografik qonuniyatlari, ularning hozirgi holati, dinamikasi hamda ulardan oqilona va barqaror foydalanishning ilmiy asoslari.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tabiiy resurslarni baholash usullari, geobotanik va populyatsion tadqiqot usullari, statistik va korrelyatsion tahlil metodlari, geoinformatsion yondashuvlar (ELC va GLC), shuningdek resurs salohiyatini tahlil qilishga qaratilgan integrativ ko‘p omilli yondashuv qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor, O‘zbekiston florasidagi resursbop dorivor o‘simliklarning xo‘jalikdagi ahamiyati, xomashyo turi, biologik xususiyatlari va tabiiy qayta tiklanish qobiliyatlari asosida 4 ta toifaga mansub 71 turdan iborat maxsus toifalarga ajratishning ilmiy asoslangan mezonlari ishlab chiqilgan;

Janubiy O‘zbekiston hududining ekogeografik (ELC) xususiyatlari va 2000–2020 yillardagi landshaftlar (GLC) transformatsiyasi dinamikasi asosida resursbop dorivor o‘simliklarning tabiiy tarqalish xususiyatlari hamda resurs potensiali qisqarishi ehtimoli yuqori bo‘lgan hududlar aniqlangan;

Janubiy O‘zbekistonning 28 turdagi dorivor o‘simliklari uchun tuproq birliklari bo‘yicha realizatsiyalangan edafik amplituda va resurs ko‘rsatkichlarining differensiatsiyasi aniqlanib, Lithosols va Calcic Xerosols tuproqlari turlar resurs ko‘rsatkichlari yuqori darajada namoyon bo‘lgan asosiy edafik birliklar sifatida ajratilgan;

kamyob va xomashyoga talabi yuqori bo‘lgan turlar misolida resurs potensialiga ta’sir etuvchi abiotik, biotik va antropogen omillarning korrelyatsion tahlili asosida resurs ko‘rsatkichlarini baholashning ilmiy asoslangan mezonlari ishlab chiqilgan;

ayrim kamyob turlar misolida, senotik populyatsiyalarning ontogenetik strukturasi va demografik ko‘rsatkichlari, turlar resurs potensialini baholash, ulardan oqilona foydalanish hamda muhofaza qilishning asosiy mezonlari ekanligi isbotlangan;

komplementarlik tahlili va GAP analysis asosida dorivor o‘simliklahni *in situ* sharoitida muhofaza qilishning ustuvor yo‘nalishlari va strategik yondashuvlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston florasidagi dorivor o‘simliklarning resurs potensialini baholash va boshqarishning ilmiy-amaliy asoslari ishlab chiqilgan. Dorivor o‘simliklar resurs potensialiga ekspluatatsion stress ta’sirini baholashning 3 ballik shkalasi ishlab chiqilgan. Tabiiy resurslarini boshqarish va foydalanishni tartibga soluvchi raqamli xaritalari ishlab chiqilgan. Janubiy O‘zbekistonda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tarkibiga kiritilmagan qo‘shimcha 7 ta hududning jami 4409,0 km^2 maydonlarini muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tarkibiga kiritish tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llanilgan zamonaviy usullar va ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarning nazariy ma’lumotlarga mos kelishi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi (Scopus va Web of Science), olingan xulosalar va qonuniyatlarni asoslanganligi, shuningdek, dissertatsiya ishining amaliy natijalari tegishli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Natijalarining **ilmiy ahamiyati** dorivor o‘simliklar resurslarini baholash va boshqarishning nazariy-metodologik asoslari takomillashtirilganligi, O‘zbekiston florasidagi resursbop turlarni toifalashning ilmiy mezonlari hamda ularning zamonaviy tasnifiy tizimi ishlab chiqilganligi, resurs potensialiga ta’sir etuvchi ekologik va antropogen omillarning korrelyatsion bog‘liqliklari aniqlanganligi hamda ekspluatatsion stressni baholashning universal shkalasi taklif etilganligi bilan asoslanadi. Shuningdek, dorivor o‘simliklarning edafik optimumlari aniqlanib, populyatsiyalarning ontogenetik va ekologik holatini kompleks baholash imkoniyati yaratilgan. Olingan natijalar dorivor o‘simliklar resurs salohiyatini ilmiy asosda prognozlash, ularning dinamikasini baholash va barqaror foydalanishning nazariy asoslarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalarining amaliy ahamiyati dorivor o‘simliklarning resurs potensialini baholash va boshqarishning ilmiy-amaliy asoslari ishlab chiqilgan. Ilk bor resursbop turlarni toifalash mezonlari asosida zamonaviy tizim ishlab chiqilganligi, dorivor o‘simliklar resurs potensialiga ekspluatatsion stress ta’sirini baholash shkalasi ishlab chiqilganligi, dorivor o‘simliklar tabiiy resurslarini boshqarish va foydalanish tartibga soluvchi raqamli xaritalarini ishlab chiqilganligi, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tatkibiga kiritilmagan qo‘shimcha 7 ta hududning jami 4409,0 km^2 maydonlarini muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tarkibiga kiritish tavsiya etilganligi, xomashyo bazasini saqlash va qayta tiklash bo‘yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishda keng qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dorivor o‘simliklar tabiiy resurslari dinamikasining aspektlari va muhofaza qilish strategiyasi bo‘yicha (Janubiy O‘zbekiston misolida) tadqiqotlari asosida:

O‘zbekiston florasida tarqalgan dorivor o‘simliklar morfologik tuzilishini, hayotiy shakli, sistematik tarkibi, har bir oilaning istiqbolli dorivor o‘simlik turlarining botanik tavsifi, tarqalishi, xomashyo sifati, kimyoviy tarkibi va tibbiyotda qo‘llanishi kesimidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 19 iyuldagi №233-1062-sonli guvohnomasi, va 2024 yil 29-maydagi №194-039-sonli guvohnomasi). Natijada, Oliy o‘quv yurtlarining 60812100 (5411100) – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi yo‘nalishlari uchun “Dorivor o‘simliklar flora va sistematikasi” va “Dorivor o‘simliklar flora va sistematikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar” darsliklari nashr etilgan.

Janubiy O‘zbekistonda (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) tarqalgan dorivor o‘simliklar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan tojik kovragi (*F. tadshikorum*) tabiiy populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar natijalari O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining 2025 yil 21 iyuldagi №10.7/4-265896/25-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, 2023-2024 yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi tomonidan qo‘zg‘atilgan 27 ta jinoiy ishlarda tojik kovragi (*F. tadshikorum*) tabiiy populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash va o‘simlikning tabiiy resurslari potensialiga antropogen ta’sirlar (ildiz shirasini yi’gish) reaksiyasini baholash shkalasini ishlab chiqish imkonini bergan.

Janubiy O‘zbekistonda (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) tarqalgan 28 turdagi dorivor o‘simliklarning resurs potensialiga bog‘liq holda toifalari, hududning turli tuproq tiplarida dorivor o‘simliklarning tarqalishi, dorivor o‘simliklar resurs potensiallari o‘zgarish dinamikasi aspektlari asosida klaster tiplari va dorivor o‘simliklar tabiiy resurslarining zamonaviy holati bo‘yicha ma’lumotlar Yaylov xo‘jaligini rivojlantirish uyushmasi faoliyatiga joriy qilingan (Yaylov xo‘jaligini rivojlantirish uyushmasining 2025 yil 15 iyuldagi №41/01-107-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari Yaylov yer maydonlarida 28 turdagi dorivor o‘simliklarning toifalarini ishlab chiqish, turli tuproq tiplarida dorivor o‘simliklarni tarqalishini baholash, resurs potensiallari asosida klaster tiplari ishlab chiqish va hududda tarqalgan dorivor o‘simliklarning tabiiy xom-ashyo resurslarini baholash imkonini bergan.

O‘zbekiston florasidagi resursbop o‘simliklarning toifalari va foydalanishning raqamli tizimi, resursbop turlarning 4 toifaga mansub 71 turining tabiiy resurslaridan foydalanish qiymati indeksi va turlar resurs potensiali o‘zgarish dinamikasini aks ettiruvchi raqamli GAT xaritalari, hamda respublikada o‘simlik dunyosi obyektlarining raqamli davlat kadastrini yuritish va ulardan maxsus foydalanish uchun kvota hajmlarini yuritishning raqamli tizimini Oliy majlis qonunchilik palatasi O‘zbekiston Ekologik partiyasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Ekologik partiyasining 2025 yil 12 avgustdagi №01/299-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.02.2022-yildagi

86-son Qarori bilan tasdiqlangan “Nizom”ning 14-ilovasiga o‘zgartirishlar kiritish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.05.2019-yildagi 430-son Qaroriga o‘zgartirish kiritish uchun takliflar ishlab chiqish, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish imkonini bergan.

O‘zbekiston florasidagi resursbop o‘simliklar 71 turining tarqalishi va resurs potensiallari bo‘yicha ma’lumotlar bazasi Global bioxilma-xillik ma’lumotlari tizimiga (www.gbif.org, GBIF) joriy qilingan (Global bioxilma-xillik ma’lumotlari bazasi sertifikati www.gbif.org, 2026-yil 28-yanvardagi guvohnomasi). Natijada, GBIF ma’lumotlar portalining O‘zbekiston florasidagi resursbop o‘simliklar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini boyitish va global tahlil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarinig aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 xalqaro va 3 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, jumladan, 8 ta respublika va 12 tasi xorijiy (Scopus/WoS) jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek, 4 xalqaro va 3 respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, olti bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha respublika va xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dorivor o‘simliklar tabiiy resurslarini o‘rganilish tarixi va O‘zbekistonda o‘simlik dunyosini muhofaza qilishdagi amaldagi qonunchilik”** deb nomlangan birinchi bobida sohaga oid xorijiy, O‘rta Osiyo va Respublika miqiyosida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Oxirgi yillardagi tahlillar, dunyo o‘simliklarining deyarli uchdan ikki qismi XXI asr davomida yo‘qolish xavfi ostida va ularning populyatsiyalari keskin qisqarib ketishi kuzatilmoqda. So‘nggi yillarda tabiiy ekosistemalarning 60% degradatsiyaga uchragan yoki tizimsiz ravishda foydalanilmoqda (Blackmore et al., 2020). Birinchi bobning birinchi bo‘limida dorivor o‘simliklar resursshunosligi sohasidagi

tadqiqotlar kompleks tahlil qilinib, mazkur yo‘nalishning asosiy ilmiy va amaliy muammolarini aniqlash imkonini berdi. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklar resursshunosligining rivojlanishi bosqichma-bosqich xarakterga ega ekanligi aniqlandi va u quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi: ilmiy asoslarning shakllanishi (1920–1940 yy.), tizimli resurs tadqiqotlarining va milliy ilmiy maktabning shakllanishi (1950–1980 yy.), ijtimoiy-iqtisodiy tizimli o‘zgarishlar bilan bog‘liq ilmiy faollikning pasayish davri (1980–1995 yy.), ilmiy yo‘nalishlarning diversifikatsiyasi (1996–2010 yy.) hamda innovatsion va raqamli yondashuvlar joriy etilayotgan zamonaviy bosqich (2011 yildan hozirgi kungacha). O‘rta Osiyoda o‘simliklar tabiiy resurslaridan tizimsiz foydalanish natijasida aksariyat qimmatli turlarning tabiiy maydonlarining keskin qisqarishiga olib keldi. Jumladan, Tojikistonda *F. tadshikorum* turining yiliga 150 t (Hisoriev, 2015), Afg‘onistonda 200 t (Sharopov, 2019) xom-ashyosi yig‘ib olinishi natijasida, zahira qiymatiga ega maydonlar deyarli saqlanib qolmadi va davlatlarning Qizil kitobiga kiritilishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekistonda ham turning zahira qiymatiga ega maydonlari 96% ga va xom-ashyo zahirasi 83% qisqarib ketishi natijasida, zahira qiymatiga ega maydonlar deyarli saqlanib qolmadi (Maxmudov, 2025).

Sohaning yangi bosqichi sifatida, respublikada dorivor resursbop turlarning tabiiy zahilaridan oqilona foydalanish va doimiy monitoringini yuritishning raqamli tizimini ishlab chiqish zarurati tug‘ildi. Natijada, Fanlar akademiyasi Botanika instituti tomonidan, tabiiy resurslaridan tizimli foydalanishini yo‘lga qo‘yish maqsadida, “O‘zbekiston florasidagi resursbop o‘simliklarning toifalari va foydalanishning raqamli tizimi” ishlab chiqildi (Maxmudov, 2025).

Natijalar tabiiy ekosistemalarda resurslarining qayta tiklanish mexanizmlarini baholash, resurslarni boshqarish va barqaror foydalanish modelini yaratish masalalari ochiq qolayotganligi yaqqol ko‘rsatadi. Ishlab chiqilgan toifalash va differensial boshqaruv konsepsiyasi resurslardan barqaror foydalanishning ilmiy asoslangan modelini shakllantirib, Markaziy Osiyo sharoitida dorivor o‘simliklar resurslarini boshqarish bo‘yicha zamonaviy integrativ platformani yaratishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar asosida dorivor o‘simliklar resurslarining uzoq yillik vaqt oralig‘idagi o‘zgarish dinamikasi ekogeografik va landshaft omillari bilan bog‘liq holda tizimli tahlil qilinib, natijada “resurslar o‘zgarish dinamikasi modeli” ishlab chiqish imkonini berdi. Ushbu model resurslarning fazoviy-taqsimlanishi, vaqt bo‘yicha variatsiyasi, antropogen yuklama darajasi hamda tiklanish potensiali o‘rtasidagi funksional bog‘liqliklarni aks ettirib, ularni prognozlash va barqaror boshqarish imkonini beradi. Dorivor o‘simliklar resurslarining o‘zgarish dinamikasi ekogeografik (ELC), landshaft (GLC) va antropogen omillar o‘zaro ta’siri asosida shakllanishi aks ettirilgan. Modelda resurslar holati (R) tabiiy o‘sish, regeneratsiya jarayonlari hamda ekspluatatsion bosim o‘rtasidagi muvozanat natijasi sifatida qaraladi. Ekogeografik va landshaft omillar resurslarning fazoviy taqsimlanishini belgilasa, antropogen yuklama ularning kamayishiga olib keluvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Model natijasida resurslar dinamikasi (ΔR) aniqlanib, hududlar barqarorlik darajasiga ko‘ra, differensial zonalarga ajratiladi. Ushbu yondashuv resurslardan oqilona foydalanish, monitoring qilish va uzoq muddatli prognozlash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bobning ikkinchi bo‘limida

respublikada o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish tartibi keltirilgan. Sohadagi mavjud muammolardan kelib chiqib, amaldagi qonunchilikka tegishli o‘zgartirish kiritishning ilmiy, amaliy va texnologik asoslari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududi. Tadqiqot obyekti va metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlarda foydalanilgan floristik, geobotanik va resursshunoslik tadqiqotlari umumqabul qilingan klassik metodlar hamda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tahlillardan foydalanilganligi batafsil keltirilgan. Mazkur bobning birinchi bo‘limida Janubiy O‘zbekistonning K.Sh.Tojibayev va boshqalar (2016) tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy botanik-geografik klassifikasiyasi asosida tasnifi, hamda hududdagi antropogen ta’sir darajasi va uning oqibatida tabiiy ekosistemalardagi o‘zgarish tendensiyalari batafsil tahlil qilingan. Bobning ikkinchi bo‘limida tadqiqot obyektlar va foydalanilgan metodlar batafsil keltirilgan. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston florasidagi resursbop turlar 4 toifaga mansub 71 turlari va bevosita Janubiy O‘zbekistonda misolida dorivor o‘simliklar tabiiy resurslari dinamikasining aspektlari va muhofaza qilish strategiyasini ishlab chiqishda, hududda tarqalgan 4 toifaga mansub 28 turdagi dorivor o‘simliklar tanlab olingan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Resurs ahamiyatiga ega dorivor o‘simliklar toifalari va janubiy O‘zbekistonda ularning hududiy muhofazasidagi bo‘shliqlar tahlili (Gap analysis)”** deb nomlanadi. Bobning birinchi bo‘limi resursbop dorivor o‘simliklarni toifalash tizimiga bag‘ishlangan. Resurs potensiali, biologik va xo‘jalik ahamiyatiga ko‘ra dorivor o‘simliklarni ajratish bo‘yicha yagona yondashuvning mavjud emasligi ularni toifalash tizimini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Mazkur tizim xomashyoga bo‘lgan talab hajmi, zahiralarning tiklanish muddati, xomashyo turi, xo‘jalikda foydalanish darajasi hamda o‘simliklarning hayotiy shakllari bo‘yicha differensiallangan to‘rtta toifani o‘z ichiga oladi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston florasidagi resursbop dorivor o‘simliklarning toifalari

Toifa	Turlarning toifalash mezoni
1	xom-ashyosiga talab yuqori (μ=400,0 t.), xom-ashyosi o‘simlikning yer ostki, yer ustki organlari (vegetativ va generativ) hisoblanadigan, tabiiy resurslari chegaralangan va tabiiy zahiralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar har yili ilmiy-tadqiqotlarni talab etadigan turlar;
2	xom-ashyosiga talab yuqori (μ=190,0 t.), xom-ashyosi yer ustki organlari (vegetativ va generativ) hisoblanadigan va har ikki yilda ilmiy-tadqiqotlar talab etiladigan turlar;
3	xom-ashyosiga talab o‘rtacha (μ=20,0 t.), xom-ashyosi o‘simlikning yer ostki, yer ustki (vegetativ va generativ) organlari hisoblanadigan va 3-4 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatlarda ilmiy-tadqiqotlar talab etiladigan turlar;
4	mahalliy aholi tomonidan yakka tartibda (tizimsiz) foydalaniladigan, halq tabobatida qo‘llaniladigan, tabiiy zahiralariga talab past darajada (μ=3,00 t.) hamda kamyob bo‘lgan turlar.

Toifalarning tur tarkibi doimiy va o‘zgarmas hisoblanmaydi. Ma’lum bir turning tegishli toifaga kiritilishi yoki undan chiqarilishi uchun resurs potensiali

ko‘rsatkichlarining o’zgaruvhligi bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalarini (kamida uch yillik) talab etadi (Maxmudov, 2025) (2-jadval).

2-jadval


Foydalanish qiymati indeksi (*UV*) bo‘yicha resursbop dorivor o‘simliklarning toifalari tavsifi

Toifa	Turlar soni (dona)	Foydalanish qiymati indeksining variabelligi (*UV*)
1	19	0,32 – 12,65
2	14	0,40 – 17,67
3	25	0,13 – 14,75
4	13	0,08 – 0,38

1-toifaga kiruvchi turlar asosan ko‘p yilliklar hisoblanib, bu toifaga 19 ta tur kiritildi. 2-toifaga 14 tur, 3-toifaga 25 tur va 4-toifaga esa 13 tur kiritilib, jami O‘zbekiston florasidagi resursbop turlar soni 71 tani tashkil qildi. 1-toifaga kiruvchi turlarning foydalanish qiymati indeksi (*UV*) 0,32–12,65 oralig‘ida, 2-toifaga kiruvchi turlarning *UV* qiymatida 0,40 dan 17,67 gacha, 3-toifaga kiruvchi turlarning *UV* qiymatida 0,13 dan 14,75 gacha va 4-toifaga kiruvchi turlarning *UV* qiymatida 0,08 dan 0,38 gacha oraliqda aniqlandi. Birinchi toifaga kiruvchi turlarning hayotiy shakli ko‘p yillik ekanligi va xom-ashyosi sifatida yer ustki va ostki organlari hisoblanishi hamda xom-ashyosining qayta tiklanishi 4–8 yil oralig‘idagi muddatlarni talab qilishini inobatga olgan holda, tabiiy resurslari doimiy monitoring qilishi tavsiya etiladi. 1-toifaga kiruvchi xom-ashyosiga yillik talab hajmi o‘rtacha 106,5 tonnani tashkil qilgan *Ferula tadshikorum* tabiiy tarqalish maydonlari va populyatsiyalari sonining keskin qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda. O‘simlikning asosiy populyatsiyalari faqat Turkmaniston va Tojikiston Respublikalari bilan O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasining chegara hududida yoki neytral hududida hamda o‘rmon fondi yerlarining ayrim hududlarida saqlanib qolgan xolos, qolgan hududlarda xom-ashyo yig‘ib olish mumkin bo‘lgan maqsadli yig‘ish maydonlari saqlanib qolmagan. Huddi shunday holat, *Ungernia victoris* ham kuzatilib, barglarining har yili uzluksiz xom-ashyo sifatida yig‘ib olinishi natijasida piyozlari maydalashib, o‘simlikni yer ustki qismi quriy boshlagan. Hozirgi kunda, turning kichik hajmdagi zahira qiymatiga ega maydonlari saqlanib qolgan holos.

Mazkur bobning ikkinchi bo‘limida, Janubiy O‘zbekistonda istiqbolli dorivor o‘simliklar xilma-xilligi va tarqalishini batafsil tahlil qilingan. Unga ko‘ra, hududdagi 6236 ta qaydnomalarda 63 turdagi istiqbolli dorivor o‘simliklar aniqlangan. Bu O‘zbekiston florasidagi mavjud 71 turning 88,7% ni tashkil qiladi. Qaydnomalar soni 1 tadan 431 ta oralig‘idagi variatsiyada bo‘lib, Janubiy O‘zbekiston bo‘ylab tarqalishi markaziy va sharqiy hududlarda eng yuqori ko‘rsatkichlari qayd etildi (606 ta qaydnoma, 9,7%). Mazkur hududlardan uzoqlashgan sari turlarning tarqalish ko‘rsatkichlari bosqichma-bosqich qisqarishi kuzatildi. Unga ko‘ra, shimoli-sharqiy hududlarda 127 ta (2%), janubi-sharqiy hududlarda 79 ta (1,26 %). Janubiy O‘zbekistonda joylashgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda (METH) dorivor o‘simliklarning tarqalashi bo‘yicha ma’lumotlarga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkichlar Bobotog‘ milliy tabiat bog‘iga

to‘g‘ri keladi (279 ta qaydnoma, 4,4 %). Hududda tarqalgan istiqbolli dorivor o‘simliklarning tarqalishi bo‘yicha qaydnomalarning aniq vizualizatsiyasi uchun 10x10 km^2 o‘lchamdagi jami 701 ta indekslarga ajratildi. Mazkur indekslarning 364 tasida dorivor o‘simliklar tarqalgan. Janubiy O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning turlar xilma-xilligiga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkichlar hududning markaziy qismida qayd etildi. Mazkur hududlarda dorivor o‘simlik turlarining soni 25–33 tur oralig‘ida bo‘lib, ular tadqiqot hududidagi eng yuqori floristik boylikka ega maydonlar sifatida ajralib turadi. Turlar, asosan, ekologik amplitudasi keng bo‘lgan, turli balandlik mintaqalarida uchraydigan hamda dorivor ahamiyati yuqori o‘simliklar hisoblanadi. Shu bilan birga, turlar boyligi yuqori bo‘lgan indekslarning muayyan qismi METH da joylashgani yoki ularga bevosita tutash ekanligi aniqlandi. Bu holat, METH ning dorivor o‘simliklar xilma-xilligini saqlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Biroq, ayrim yuqori indekslarning METH dan tashqarida joylashgani hududlarda antropogen bosim mavjudligini ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Janubiy O‘zbekistonda tarqalgan 63 turdagi dorivor o‘simliklarning tarqalishi bo‘yicha qaydnomalar soni va turlar xilma-xilligi (10x10 km^2)


Taksonomik tahlil natijalariga ko‘ra, 71 turdagi resursbop dorivor o‘simliklar 60 turkum va 30 oilaga mansub ekanligi aniqlandi. Turlar soni bo‘yicha eng boy oila Asteraceae bo‘lib, 12 turni (16,9%) tashkil etadi. Bu mazkur oilaga mansub turlarning mintaqaning turli ekologik sharoitlariga yuqori moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Lamiaceae oilasi 9 tur (12,7%), Apiaceae 6 tur (8,5%) va Rosaceae 5 tur (7,0%) bilan sezilarli ulushga ega. Qolgan oilalar esa 1–2 tadan turlar ulushiga ega. Turkumlar spektrida *Ferula, Artemisia, Allium, Ziziphora, Hypericum, Crataegus, Berberis, Inula* va *Prunus* ustunlik qiladi va 2–4 tadan turni o‘z ichiga oladi. Boshqa turkumlar esa bittadan turlarga ega bo‘lib, bu flora taksonomik xilma-xilligining yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar dorivor o‘simliklar florasining yuqori taksonomik xilma-xillikka ega ekanligini, Asteraceae, Lamiaceae va Apiaceae oilalari vakillari ustunligini hamda Markaziy Osiyo florasiga xos kserofit va tog‘ arid elementlarning sezilarli ishtirokini tasdiqlaydi.

Floraning geografik tuzilmasi tahlili Tog‘li O‘rta Osiyo (13 tur; 18,3%), pluriregional va qadimiy O‘rta yer dengizi elementlarining (har biri 12 tur; 16,9%) ustunligini ko‘rsatdi. Shuningdek, Eron–Turon va Golarktika elementlari muhim rol o‘ynaydi (har biri 4 tur; 5,6%), qolgan geografik elementlar esa kam miqdorda uchraydi. Olingan ma’lumotlar floraning avtoxton tog‘ arid xususiyatga ega ekanligini hamda Qadimgi O‘rta yer dengizi va Eron–Turon floristik viloyatlari bilan yaqin florogenetik aloqalarini aks ettiradi. Tadqiqot hududi uchun Pomir-

Oloyning endemlari va subendemlarining, jumladan *Ungernia victoris, Ajuga turkestanica* va *Ferula tadshikorum* turlarining mavjudligi yuqori darajadagi endemizm hamda o‘rganilayotgan floristik kompleksning bio-geografik o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Bobning uchinchi bo‘limida, Janubiy O‘zbekiston uchun Ecogeographic Land Characterization (ELC) yondashuvi asosida hududning ekologik xilma-xilligi baholangan. Janubiy O‘zbekiston hududi 60 ta ekologik jihatdan farqlanuvchi ekotizimlarga ajratildi. Biroq, tahlillar Janubiy O‘zbekiston hududi ma’muriy hududlar kesimida (Qashqadaryo va Surxondaryo) ajratilganda, ELC zonaning faqat 42 tasi ushbu hudud chegaralarida saqlanib qolganligi aniqlandi.

ELC indekslarining qiymatlari asosida tadqiqot hududi to‘rtta yirik ekologik guruhga ajratildi: *ELC-1 Quruq tekislik ekotizimlari (Arid lowland ecosystems), ELC-2 Yarim quruq tog‘oldi ekotizimlari (Semi-arid foothill ecosystems), ELC-3 Tog‘li nam ekotizimlar (Mountain humid ecosystems), ELC-4 Baland tog‘ ekotizimlari (High mountain ecosystems).* Janubiy O‘zbekistonning 42 ta ELC hududlaridan 39 tasida dorivor o‘simliklar tarqalganligi qayd etilib, ularning 10 tasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar doirasiga kiradi. Umumlashtirilgan ELC xaritasi Qashqadaryo–Surxondaryo hududining ekologik geterogenligini aniq ifodalaydi. Hududda iqlim, relyef, tuproq va yer qoplamasi omillarining o‘zaro ta’siri natijasida murakkab ekologik makon shakllanganligi aniqlandi. ELC natijalari hududning tabiiy resurslarini baholash, biologik xilma-xillikni saqlash, dorivor o‘simliklar tarqalishini tahlil qilish hamda muhofaza choralarini rejalashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi (2-rasm).



2-rasm. Janubiy O‘zbekistonning 42 ta ekogeografik (ELC) va yer qoplami va landshaftining (GLC) o‘zgarish xaritasi (2000–2020 y.)

Bobning to‘rtinchi bo‘limida, Janubiy O‘zbekiston hududining yer qoplamining vaqt bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash va baholangan. Bunda ESA Climate Change Initiative (CCI) Land Cover global ma’lumotlar bazasi ma’lumotlari qo‘llanildi. Mazkur dataset Copernicus Climate Data Store platformasi orqali taqdim etilgan bo‘lib, 1992–2020 yillar oralig‘idagi yer qoplami klassifikatsiya xaritalarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot doirasida 2000, 2010 va 2020-yillarga tegishli raster ma’lumotlaridan (300 m fazoviy aniqlikda) foydalanildi. GLC xaritasi asosida hududda 7 ta yer qoplami sinfi aniqlanib, ular yaylov/dasht hududlari (Rangeland / Steppe), butazorlar (Shrubland), o‘tloqlar (Grassland), agrolandshaftlar (Cropland), ochiq (o‘simlik qoplamsiz) yerlar (Bare land), aholi yashash punktlari (Built-up) va suv obyektlari (Water bodies) hududlarni o‘z ichiga oladi. 2000–2020 yillarda yer qoplami tuzilmasining dinamikasi hududda sezilarli landshaft transformatsiyasi jarayoni kechayotganini ko‘rsatadi. Ayrim tabiiy landshaft turlari qisqarish tendensiyasini namoyon etgan bo‘lsa, antropogen landshaftlarning ulushi barqaror ravishda ortib borgan. Yaylov / Dasht hududlari 2000 yildagi 18,52% dan 2020 yilga kelib 15,56% gacha kamaygan. Bu 20 yillik davrda tabiiy yaylov va dasht landshaftlarining qisqarishini anglatadi (4-rasm).

Mazkur qisqarish antropogen bosimning kuchayishi, yerlarning boshqa toifalarga o‘tishi yoki degradatsiya jarayonlarining kuchayishi bilan bog‘liq. Butazorlar hududlarining umumiy davr davomida nisbatan barqaror holatda saqlanib qolgan (22,29%→22,47%). 2010 yilda vaqtinchalik pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2020 yilga kelib maydon ulushi deyarli boshlang‘ich holatga qaytgan. O‘tloqlarning 2000–2010 yillar oralig‘ida kengayish (21,16%→23,21%) kuzatilgan, biroq 2020 yilga kelib 21,92% ga qisqargan. Mazkur dinamika arid ekotizimlarga xos qonuniyatni tasdiqlab, namlik bilan ta’minlanish darajasining ortishi o‘tloq va o‘t o‘simliklar jamoalarining rivojlanishini kuchaytirsa, qurg‘oqchilikning kuchayishi hamda namlik tanqisligining ortishi o‘simlik qoplamining qurg‘oqchilikka bardoshli butasimon jamoalar ustunligi tomon transformatsiyalanishiga olib keladi. Bu o‘tloq ekotizimlarining iqlimiy yoki xo‘jalik omillari ta’sirida o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Agrolandshaftlar sezilarli darajada qisqarib (8,06%→5,67%), bu qishloq xo‘jaligi yerlarining boshqa yer toifalariga transformatsiyalanganini bildiradi. Ayniqsa, aholi yashash punktlarining kengayishi bilan bog‘liq holda, ayrim qishloq xo‘jaligi maydonlari urbanizatsiya hududlariga aylanganligi izohlanadi. Ochiq (o‘simlik qoplamsiz) yerlarning ulushi juda past va deyarli o‘zgarmagan (0,11%→0,06%). Bu ochiq, vegetatsiyasiz maydonlarning hudud miqyosida minimal ekanligini ko‘rsatadi. Eng sezilarli o‘zgarishlar aholi yashash punktlarida kuzatildi. Ushbu hududlar 2000 yildagi 29,09% dan 2020 yilda 33,42% gacha oshgan. Bu izchil o‘sish hududda urbanizatsiya jarayonining jadallashganini, aholi punktlari va infratuzilma obyektlarining kengayganini ko‘rsatadi. Mazkur hududlarning ortishi tabiiy landshaftlar qisqarishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Suv obyektlarida esa kichik, ammo barqaror o‘sish kuzatilgan (0,78%→0,88%). Bu suv obyektlari maydonida sezilarli o‘zgarish bo‘lmaganini va gidrologik tizim nisbatan barqarorligini bildiradi. 2000–2020 yillar oralig‘ida hudud landshaft

tuzilmasida antropogen komponentlar ulushining ortishi va tabiiy yaylov landshaftlarining qisqarishi kuzatilmoqda. Bu jarayon yer resurslaridan intensiv foydalanish, urbanizatsiya va landshaftning funksional transformatsiyasi bilan izohlanadi. Hududda so‘nggi yigirma yil davomida antropogen landshaft transformatsiyasi ustun bo‘lganini ko‘rsatadi. Eng yuqori o‘zgaruvchanlik aholi yashash punktlarida qayd etilib, ≈4,33 % sof o‘sish, urbanizatsiya jarayonlari jadallashganini va tabiiy yer maydonlarining faol o‘zlashtirilayotganini tasdiqlaydi (3-jadval).

3-jadval

Janubiy O‘zbekistonning yer qoplami va landshaftining (GLC) o‘zgarish tendensiyasi

GLC	Yillar (%)			O‘zgarish tendensiyasi (%)
	2000	2010	2020	
Rangeland / Steppe	18,52	18,42	15,56	-2,96
Shrubland	22,29	21,09	22,47	+0,18
Grassland	21,16	23,21	21,92	+0,76
Cropland	8,06	5,75	5,67	-2,39
Bare land	0,11	0,06	0,06	-0,05
Built-up	29,09	30,61	33,42	+4,33
Water bodies	0,78	0,86	0,88	+0,10

Eng intensiv o‘zgarishlar resurs jihatdan qimmatli va endem turlar yuqori konsentratsiyada uchraydigan ekologik-geografik zonalar (ELC) doirasida qayd etildi. 2021–2025 yillar davomida dorivor o‘simliklarning resurs maydonlari dinamikasi tahlili bir qator turlarning tabiiy populyatsiyalari keskin qisqarganligi aniqlandi. Eng yuqori darajadagi resurs maydonlari degradatsiyasi *Rhodiola heterodonta* (93,85%), *Ferula tadshikorum* (93,70%), *Helichrysum maracandicum* (86,84%) va *Acanthophyllum gypsophiloides* (80,52%) turlarida qayd etildi. Shuningdek, sezilarli qisqarish *Ungernia victoris* (67,0%) va *Ajuga turkestanica* (55,36%) turlarida ham kuzatildi. Olingan natijalar antropogen landshaft transformatsiyasi, tabiiy yashash muhitlarining qisqarishi va dorivor o‘simliklar resurs salohiyatining degradatsiyasi o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni tasdiqladi. Eng zaif holatda Pomir-Oloyning endem va tor arealli turlar bo‘lib, ular Janubiy O‘zbekistonning tog‘ va tog‘oldi ekotizimlariga xosdir. Bu holat mintaqaning asosiy ELC-zonalari doirasida monitoring, muhofaza va resurslardan oqilona foydalanish choralarini kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Bobning beshinchi bo‘limida komplementarlik tahlili asosida dorivor o‘simliklarni *in situ* sharoitida muhofaza qilish asoslari (Gap analysis) keltirilgan. Janubiy O‘zbekistonda tarqalgan 63 turdagi dorivor o‘simliklarning 46 turi METH da uchrashi qayd etildi. Kamyob va xomashyosiga yillik talab hajmi talab yuqori bo‘lgan 17 turdagi dorivor o‘simliklarning METH dan tashqari hududlarda


tarqalganligi aniqlandi. Janubiy O‘zbekiston hududida dorivor o‘simlik turlarini muhofaza qilish uchun 7 ta ustuvor hududlar aniqlandi. Ustuvor hududlar Hisor tog‘ tizmasi, Boysun-Ko‘hitang tog‘lari hamda ularga tutash vodiy landshaftlarida tarqalgan. Hududlar ekologik sharoitlarning xilma-xilligi va balandlik gradientlarining mavjudligi tufayli dorivor o‘simliklar turlarining yuqori boyligi bilan ajralib turadi. Ustuvor hududlarning asosiy qismi mavjud METH dan tashqarida joylashgan. Ayrim ustuvor hududlar mavjud METH bilan qisman mos keladi. Bu holat mavjud muhofaza hududlari tarmog‘i biologik xilma-xillikni to‘liq qamrab olmasligini ko‘rsatadi. Ustuvor hududlarda O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan, ayniqsa dorivor va xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan *Acanthophyllum gypsophiloides, Ferula tadshikorum, Lagochilus inebrians, Rhus coriaria* va *Ungernia victoris* turlarining keng tarqalganligi, hududlarning muhofazaga olish uchun yuqori ahamiyatga ega. Endemik turlar turlarning populyatsiyalari haddan tashqari yig‘ib olish va yaylov bosimi tufayli qisqarishi, mazkur hududlarning noyob biologik qiymatini yanada oshiradi. Olingan natijalar asosida Janubiy O‘zbekistonda joylashgan METH tarkibiga kiritilmagan qo‘shimcha 7 ta hududning jami 4409,0 km^2 maydonlarini muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tarkibiga kiritish ushun tavsiya etiladi (3-rasm).

Dissertatsiyaning **“Dorivor o‘simliklar tabiiy resurslari dinamikasining aspektlari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida dorivor o‘simliklarning resurs potensiali dinamikasi kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot konsepsiyasi turlar resurs potensialini fitotsenotik, edafik, ekologik omillar bilan o‘zaro bog‘liq holda baholashga asoslangan. Bobning birinchi bo‘limida turlarning toifalar kesimida tabiiy resurslari baholangan. Turli toifalarga kiritilgan dorivor o‘simliklarning resurs potensialini baholash natijalari, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari o‘rtasida xomashyo hajmi hamda zahira qiymatiga ega maydonlari bo‘yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi (4-jadval).

4-jadval


Toifalar kesimida Janubiy O‘zbekistonning dorivor o‘simliklari resurs potensiali

Toifalar	Qashqadaryo viloyati		Surxondaryo viloyati		Jami
	Xomashyo hajmi (t)	Zahira qiymatiga ega maydon (ga)	Xomashyo hajmi (t)	Zahira qiymatiga ega maydon (ga)	Xomashyo hajmi (t)
1-toifa	11,82	172,0	17,75	296,5	29,57
2-toifa	21,22	170,5	5,70	164,0	26,92
3-toifa	2,08	65,7	1,92	93,5	4,00
4-toifa	4,56	40,1	3,69	58,5	8,25
	39,68	**448,3**	**29,05**	**612,5**	**68,73**



3-rasm. Komplementarlik tahlili asosida Janubiy O‘zbekistonda muhofazaga olish uchun tavsiya etilayotgan hududlar

Bobning ikkinchi bo‘limida Janubiy O‘zbekistonda tarqalgan istiqbolli dorivor o‘simliklar tabiiy resurslarining turli tuproq tiplarida o‘zgarish aspektlari tahlil qilingan. Hozirgi kungacha Janubiy O‘zbekistonning tuproq tiplari bo‘yicha xaritasi ishlab chiqilgan (Maxmudov et al., 2024) (4-rasm). Unga ko‘ra, *I. grandis* turining edafik optimumi dengiz sathidan 1300–1500 m balandliklarda joylashgan tog‘li-shag‘alli Lithosols (I) tuproqlariga to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Shuningdek, *Rhodiola heterodonta, Ferula tadshikorum* va *Ungernia victoris* turlarining ham resurs potensialining shakllanishi aynan shu tuproq tiplari bilan bog‘liq. *Ajuga turkestanica* uchun tog‘oldi hududlarining bo‘z-toshloq tuproqlari eng qulay sharoit hisoblanadi. *Ferula foetida* va *Allium stipitatum* esa asosan bo‘z va tog‘ bo‘z tuproqlarida tarqalgan. *Hippophae rhamnoides* turining resurs potensaili daryo vodiylarining allyuvial-prolyuvial tuproqlarida eng yuqori darajada namoyon bo‘ladi. *Rhus coriaria* quyi tog‘larning shag‘alli jigarrang tuproqlariga, *Acanthophyllum gypsophiloides* esa toshloq-shag‘alli substratlarga xosdir. Olingan natijalar tuproq sharoitlari Janubiy O‘zbekiston dorivor o‘simliklari resurslarining shakllanishi va hududiy taqsimlanishida yetakchi omillardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot hududlaridagi asosiy tuproq tipi tog‘-shag‘alli Lithosols (I) tuproqlariga to‘g‘ri keladi. Lithosols tuproqlari Leptosols guruhiga mansub bo‘lib, zich tog‘ jinslari ustida shakllangan va yuqori darajada toshli tuproqlar sifatida tavsiflanadi (Soil Grid, 2025). Tadqiqot hududlaridagi dominant Lithosols tuproqlari tarkibini tahlil qilish uchun tuproqning yuqori qatlami bo‘yicha 4 ta ko‘rsatkich (qum miqdori, pH, N va $CaCO_3$) tanlab olindi. Natijada, Lithosols tuproqlarining yuqori qatlamida qum miqdori o‘rtacha 63,4 %, suvli muhitda pH 6,8, N 0,12 % va $CaCO_3$ 0,125 % ni tashkil etadi.



4-rasm. Janubiy O‘zbekistonning tuproq tiplari xatitasi

Dorivor o‘simliklarning eng yuqori tur xilma-xilligi Lithosols (I) tipidagi tog‘-shag‘alli tuproqlarda tarqalishini ko‘rsatdi. Mazkur tipdagi tuproqlar asosan kserofit va petrofik o‘simlik jamoalarining shakllanishiga imkon yaratadi. Lithosols tuproqlarida turlar resurs potensialining yuqori shakllanishi asosiy edafik optimum ekanligini ko‘rsatadi. Bunday tuproqlar o‘simlik ildizi joylashgan qatlamning yaxshi aeratsiyasini ta’minlaydi va ortiqcha namlik to‘planishini cheklaydi, bu esa tog‘ kserofit o‘simliklari uchun muhim ekologik omil hisoblanadi. Calcic Xerosols (Xk) tuproqlari asosan tog‘oldi va yarim cho‘l hududlariga xos bo‘lib, karbonatlarning yuqori miqdori hamda nisbatan qurg‘oqchil sharoitlar bilan tavsiflanadi.

Mazkur tuproqlarda tarqalgan turlar qurg‘oqchil muhitga moslashgan bo‘lib, suv tanqisligiga chidamlilik va karbonatli substratlarga moslashuv kabi ekologik xususiyatlar bilan ajralib turadi. Turlar tegishli edafik guruhlarga: Litofitlar (10–12 tur), Karbonatli tuproq kserofitlari (8–10 tur), Allyuvial vodiy turlari (4–6 tur), Psammofit turlar (3–4 tur) va ekologik plastik turlar (2 tur). Janubiy O‘zbekiston hududida dorivor o‘simliklarning resurs potensiali shakllanishi Lithosols hamda Calcic Xerosols tuproqlari bilan bog‘liq. Aynan ushbu ekologik sharoitlarda dorivor xomashyo resurslari yuqori va barqaror senopopulyatsiyalar shakllanadi. Ward-klaster tahlili, Janubiy O‘zbekistondagi dorivor o‘simliklar florasi tasodifiy turlar yig‘indisi emas, balki muayyan edafik guruhlar tizimini tashkil etishini ko‘rsatdi. Bu tizim floraning mintaqaga xos bo‘lgan asosiy geomorfologik va tuproq–ekologik hududlari bilan uzviy bog‘liqligini aks ettiradi. Dorivor o‘simliklarning tuproq omillari bo‘yicha ekologik differensiallashuvi 28 ta tur va 8 ta informativ tuproq ko‘rsatkichi asosida PCA usulida baholandi. Ma’lumotlar Z-score usulida standartlashtirilib, tahlil korrelyatsiya matritsasi asosida bajarildi. Ma’lumotlarning PCA uchun qoniqarli darajada mosligi KMO ko‘rsatkichi (0,582) va Bartlett testining statistik ahamiyatli natijasi (χ^2=173,028; df=28; p<0,001) bilan tasdiqlandi. PC1 umumiy dispersiyaning 44,84% ini, PC2 esa 29,75% ini izohlab, ularning

kumulyativ ulushi 74,59% ni tashkil etdi. Loading, Cos^2 va contribution ko‘rsatkichlari asosida PC1ning shakllanishida DS, Qc, Yk va Yt, PC2da esa Gc, Jc, Xk va Yk tuproq birliklarining hissasi yuqori ekanligi aniqlandi. PCA ordinasiyasi turlarning tuproq birliklari bilan bog‘liq ekologik gradientlar bo‘yicha differensiallashganini hamda o‘xshash edafik profilga ega turlar alohida guruhlanganini ko‘rsatdi.


Bobning uchinchi bo‘limida xomashyo bo‘yicha yillik talab hajmi yuqori turlarning tabiiy populyatsiyalari mahsuldorligini baholash – korrelyatsion tahlillari amalga oshirilgan. O‘simliklarda morfologik belgilar, hosildorlik hamda abiotik omillar o‘rtasida statistik jihatdan o‘zaro bog‘liqliklar mavjudligini aniqlash imkonini bergan. Aniqlangan ko‘rsatkichlarni yuqori mahsuldor o‘simlik individlarini baholashda potensial mezonlar hisoblanadi (Maxmudov et al., 2025). Natijalar ushbu turlar populyatsiyalarini muhofaza qilish va ulardan barqaror foydalanishda morfologik xususiyatlar hamda abiotik omillar ta’sirini birgalikda hisobga oluvchi kompleks yondashuvlar zarurligini ko‘rsatadi.

Bobning to‘rtinchi bo‘limi dorivor o‘simliklar resurs potensialiga ekspluatatsion stress ta’sir reaksiyasini baholash shkalasini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotlarda ekspluatatsion stressning turlar resurs potensialiga ta’sirini baholashning uch darajali (balli) shkalasi ishlab chiqilgan (Maxmudov et al., 2025). Shkaladagi ballarning ortib borishi o‘simlik populyatsiyalarining buzilish darajasini aks ettiradi. Bir hududda uch yil davomida o‘simlik xomashyosini muntazam yig‘ib olish populyatsiyaga yetkazilgan zarar darajasini va tiklanish qobiliyatini baholash imkonini beradi. Ma’lum hududda turga berilgan 1 dan 3 ballgacha bo‘lgan baho uning resurs potensiali va populyatsiyalari holatini ifodalaydi. Ballarni belgilashda o‘simlikning hayotiy shakli hamda yig‘ib olinadigan xomashyo turi ham inobatga olinadi. Baholash mezonlariga ko‘ra, 1 ball – gamma (γ), 2 ball – beta (β), 3 ball esa alfa (α) darajasini bildiradi. Natijada, xomashyoni uch yil yoki undan ortiq muddat davomida muntazam yig‘ib olish o‘simlikning resurs potensialini tiklash qobiliyatini sezilarli darajada qisqartiradi. Ko‘rsatkichlarga ko‘ra, ekspluatatsion individlar soni birinchi yilda 22,7 % ga kamaygan bo‘lsa, to‘rtinchi yilga kelib bu ko‘rsatkich 94,2 % gacha yetgan (5-rasm).

Bir omilli dispersiya tahlili (ANOVA) ta’sir intensivligi (yig‘ib olish yili) barcha tahlil qilingan o‘zgaruvchilarga statistik jihatdan ishonchli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi ($F_{(4,16)}$=21,36–184,02); $p<0,001$. Ishlab chiqilgan shkala bo‘yicha, ko‘p yillik o‘t o‘simliklarning yer ustki qismini bir martalik ekspluatasiyasidan keyin, qayta tiklanishi o‘rtacha 3–4 yilni va 1 ball (γ) bilan baholanadi. Ikki yil davomida esa 6–7 yil va 2 ball (β), uch yil yoki undan ortiq muddatda foydalanish, resurs potensialining tiklanish imkoniyati cheklanadi va 3 ball (α) bilan baholanadi. Shu sababli, turlar yer ustki xomashyoshini bir hududda kamida 4 yilda bir marta yig‘ib olish tavsiya etiladi.

Ko‘p yillik o‘t o‘simliklarning yer ostki qismini bir martalik ekspluatatsiyasi 2 ball (β), ikki yil davomida takroriy ekspluatatsiya esa 3 ball (α) bilan baholanadi. Yarim butalarning yer ustki ikki yil davomida ekspluatatsiya qilinganda tiklanish uchun 6–7 yil talab etiladi va 2 ball (β) bilan baholanadi, uch yil yoki undan ortiq muddat davomida yig‘ib olish esa 3 ball (α) bilan baholanadi. Yarim butalarning yer

ustki qismlarini ham tabiiy sharoitda bir hududda kamida 4 yilda bir marta yig‘ib olish tavsiya etiladi. Resurslarni boshqarish nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan ekspluatatsion stress ta’sirini baholash shkalasi, tabiiy resurslarni baholashning zamonaviy yondashuvi hisoblanadi. Biomassa yoki hosildorlik ko‘rsatkichlariga asoslangan an’anaviy resurs inventarizatsiyasidan farqli ravishda, ushbu shkala tiklanishning vaqt bo‘yicha dinamika hamda ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlarini ham hisobga oladi. Resurs hududlarini barqaror foydalanish imkoniyatiga ko‘ra, aniqroq tasniflash imkonini beradi (5-jadval).



5-rasm. *F. tadshikorum* resurs potensialining qisqarish dinamikasi. *Izoh: NEI (dona) – ekspluatatsion individlar soni; P (kg/ga) – xomashyo hosildorligi; Leaf length (sm) – model o‘simliklarning barg uzunligi; Root diameter (sm) – model o‘simliklarning ildiz diametri; DR–P (%) – hosildorlikning qisqarish dinamikasi*

5-jadval

Dorivor o‘simliklarning resurs potensialiga ekspluatatsion stress ta’sirini baholash shkalasi

O‘simlikning hayotiy shakli	Xomashyo turi	Ta’sir intensivligi (yil)	Ekspluatasion individlar soni (dona)	Hosildorlik (kg/ga)	Qayta tiklanish davomiyligi (yil)	Ball
Ko‘p yillik	Yer ostki qismi	Ekspluatatsiyasiz	14,6±1,21	4,38±0,36	-	-
		1	8,2±0,65	2,46±0,19	3-4	β / 2
		2	6,5±0,17	1,95±0,05	Tiklanish imkoniyati cheklanadi	α / 3
Ko‘p yillik	Yer ustki qismi	Ekspluatatsiyasiz	8,5±0,58	51,77±3,69	-	-
		1	6,9±0,52	42,0±3,32	3-4	γ / 1
		2	4,8±0,24	29,3±1,84	6-7	β / 2
		3 yildan ko‘p	1,7±0,26	10,4±1,72	Tiklanish imkoniyati cheklanadi	α / 3
Yarim buta	Yer ustki qismi	Ekspluatatsiyasiz	11,4±0,47	69,3±2,64	-	-
		1	7,2±0,38	44,1±2,86	3-4	γ / 1
		2	5,1±0,45	31,02±2,74	6-7	β / 2
		3 yildan ko‘p	1,4±0,16	8,46±0,93	Tiklanish imkoniyati cheklanadi	α / 3


Ushbu shkalani nafaqat O‘zbekiston, balki dorivor o‘simlik tabiiy resurslariga antropogen bosim ortib borayotgan Markaziy Osiyoning o‘xshash ekotizimlarida ham qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi **“Ayrim kamyob dorivor o‘simliklar populyatsiyalarining zamonaviy holati”** deb nomlanadi. Ushbu bobda *Acanthophyllum gypsophiloides* (6 ta), *Ferula tadshikorum* (11 ta), *Ungernia victoris* (4 ta), *Lagochilus inebrians* (1 ta) ishtirok etgan jami 22 ta senopopulyatsiyalarning (SP) ontogenetik strukturasi, demografik ko‘rsatkichlari va resurs potensiallari ko‘rsatkichlarini kompleks tahlil qilish orqali baholangan. Tadqiqotlar natijasida turlar tabiiy resurslarining holati senopopulyatsiyalarning yosh tarkibi xususiyatlari bilan belgilanishi aniqlangan. *Acanthophyllum gypsophiloides* ning barcha o‘rganilgan senopopulyatlari ontogenetik spektrning markazlashgan tipga mansub bo‘lib, demografik ko‘rsatkichlari qoniqarli holatda ekanligi aniqlandi. Mazkur holat xomashyo zahiralari cheklangan (0,008–0,077 t) sharoitda ham turning biologik resurs potensiali saqlanib qolishini ta’minlaydi. *Ferula tadshikorum* turida chap tomonlama, markazlashgan, bimodal va o‘ng tomonlama ontogenetik spektrlar aniqlandi. Senopopulyatsiyalarda tuplar zichligining (0,95–2,45 t/m^2) hamda resurs potensialining (6,5–20,0 ga; 0,005–0,103 t) keng o‘zgarish diapazoni bilan ajralib turishi, uning tabiiy resurslari holatining hududlar bo‘yicha yuqori darajada notekis shakllanganligini ko‘rsatdi. *Ungernia victoris* turi senopopulyatlari chap tomonlama, markazlashgan va bimodal tipga xos bo‘lib, barqaror demografik ko‘rsatkichlar (1,35–2,40 t/m^2) qayd etildi. Bu esa tur senopopulyatlarining yuqori resurs salohiyati (10–25 ga; 0,288–0,526 t) va turning tabiiy qayta tiklanish jarayonlari qulay sharoitda ekanligini ko‘rsatdi. *Lagochilus inebrians* ning yagona o‘rganilgan senopopulyatsiyasi ontogenetik spektri o‘ng tomonlama tipga xos bo‘lib, tuplar zichligi past (1,25 t/m^2) va mos ravishda minimal resurs potensiali (0,1 ga; 0,0001 t) aniqlandi. Mazkur holat, hududda turning resurslarini ekspluatatsiya qilish mumkin emasligini tasdiqlaydi. Tadqiqotlar natijasida chap tomonlama va markazlashgan senopopulyatsiyalar tabiiy qayta tiklanish darajasining yuqoriligi hamda resurs potensialining normal saqlanib turishi qayd etildi. Aksincha, o‘ng tomonlama ontogenetik spektlarning shakllanishi resurs potensialining pasayishi va foydalanishni cheklash zarurligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar resurs potensialini baholash va turlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bo‘yicha differensial yondashuvni ilmiy asoslash imkonini berdi.

Dissertatsiyaning oltinchi bobi **“Dorivor o‘simliklar tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish strategiyasi”** deb nomlanadi. Mazkur bob tabiiy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ularni muhofaza qilishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish hamda hududiy va mintaqaviy darajada resurslarni boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni shakllantirishga bag‘ishlangan.

Bobning birinchi bo‘limi dorivor o‘simliklar tabiiy resuslaridan foydalanishni tartibga soluvchi raqamli tizimini ishlab chiqish qaratilgan. Floraning resursbop dorivor o‘simliklari toifalanishi – raqamlashtirishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Natijada, O‘zbekiston florasidagi 4 toifaga mansub 71 turdan iborat resursbop dorivor turlarning 7000 ga yaqin geobog‘langan ma’lumotlar paketi asosida MS Acces dasturida “O‘zbekiston florasidagi resursbop turlarning raqamli davlat kadastri” ishlab chiqildi. Tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga soluvchi to‘r tizimli raqamli xaritalarda o‘simliklarning resurs potensiali 3 toifaga ajratildi: Birinchi toifa (yashil indekslar) – xom-ashyo yig‘ish ikki yil mobaynida amalga

oshirish mumkin bo‘lgan hududlar; Ikkinchi toifa (sariq indekslar) – xom-ashyoni yig‘ish bir yil mobaynida amalga oshirish mumkin bo‘lgan hududlar; Uchinchi toifa (qizil indekslar) – xom-ashyoni yig‘ishni cheklash tavsiya etilayotgan hududlar hisoblanadi. Bunday raqamli yondashuv biologik resurslar holatini real vaqt rejimida baholash, aniq tavsiyalar berish, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish va ularni tiklash imkoniyatlarini oshiradi (6-rasm).




6-rasm. Dorivor o‘simliklar tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga soluvchi raqamli xaritalar

Bobning ikkinchi bo‘limida dorivor o‘simliklardan foydalanish amaliyotini bosqichma-bosqich qisqartirish modeli ishlab chiqilgan. Mazkur model ekspluatatsiyani taqiqlash emas, balki uni ilmiy asoslangan me’yorlash, hududiy differensiallash va bosqichma-bosqich plantatsiyaga o‘tkazish orqali tabiiy populyatsiyalarni tiklashga qaratilgan kompleks boshqaruv tizimi hisoblanadi. Mazkur yondashuvning samaradorligi bir qator dorivor o‘simliklarni introduksiya qilish va plantatsiya sharoitida yetishtirish bo‘yicha erishilgan muvaffaqiyatli natijalar bilan tasdiqlanadi. Xususan, so‘nggi 10–15 yil davomida Janubiy O‘zbekistonda *Ferula tadshikorum* turining umumiy maydoni qariyb 5000 gektarni tashkil etuvchi sanoat plantatsiyalari barpo etildi. Bu esa tabiiy populyatsiyalarga tushayotgan bosimni sezilarli darajada kamaytirish va xomashyoni barqaror olish imkonini berdi. Shuningdek *Ferula foetida* turiga nisbatan ham olib borilmoqda. Hozirda turning plantatsiya maydonlari 1000 gektardan oshadi. Olingan natijalar eng talab yuqori bo‘lgan dorivor turlarni bosqichma-bosqich tabiiy sharoitda yig‘ib olinadigan obyektlar toifasidan madaniylashtirilgan va plantatsiyalarda yetishtiriladigan o‘simliklar toifasiga o‘tkazish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu esa tabiiy resurslarni saqlash hamda dorivor o‘simliklar yetishtirish tarmog‘ining barqaror rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi.

Bobning uchinchi bo‘limida o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikka 7 ta asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tavsiya etilgan. Taklif etilayotgan qonunchilikka o‘zgartirishlar tabiiy resurslardan foydalanishni ekologik barqarorlik tamoyillari asosida tartibga solish, muhofaza qilish, tiklash va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Taklif etilayotgan o‘zgartirishlarning

batafsil asoslari, shuningdek tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilishi tavsiya etilayotgan qo‘shimchalar loyihalari dissertatsiyada keltirilgan.

Bobning to‘rtinchi bo‘limi global miqyosda biologik xilma-xillikni saqlash, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga o‘tish jarayonlari ham mazkur strategiyani ishlab chiqishga qaratilgan. Taklif etilayotgan strategiya tizimli yondashuvga asoslangan, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta asosiy komponentni o‘z ichiga oladi. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish strategiyasi ko‘p komponentli va integratsiyalashgan yondashuvga asoslanadi. Ushbu strategiya huquqiy, ilmiy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlarning uyg‘unlashuvi orqali dorivor o‘simliklar resurslarining barqaror boshqaruvini ta’minlaydi (7-rasm).



7-rasm. Dorivor o‘simliklar tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning konseptual modeli

XULOSALAR

“Dorivor o‘simliklar tabiiy resurslari dinamikasining aspektlari va muhofaza qilish strategiyasi (Janubiy O‘zbekiston misolida)” mavzusidagi fan doktori (DSc) dissertatsiyasi yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Dorivor o‘simliklar resurslarini biologik, ekologik va xo‘jalik ahamiyati majmuasiga asoslangan integral ko‘p omilli tizim sifatida baholash zarurligi asosida, muallif tomonidan Janubiy O‘zbekiston sharoitida ularni toifalashning ilmiy asoslangan yondashuvi ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv o‘simlik resurslarini baholash va ulardan oqilona foydalanish uchun yagona metodologik asosni ta’minlaydi.

2. Ilk bor Janubiy O‘zbekistonda dorivor o‘simliklar resurs potensialining shakllanishi differensiatsiyasi ekologik-geografik (ELC) xususiyatlar va zamonaviy landshaft qoplami (GLC) tuzilishining o‘zaro ta’siri bilan belgilanishi aniqlandi. Tabiiy landshatlarning antropogen transformatsiyasi tabiiy muhit maydonlarining qisqarishi, resurs maydonlarining qayta taqsimlanishi hamda dorivor o‘simliklar resurs potensialining qisqarishi bilan isbotlandi. 2000–2020 yillar davomida yaylov–dasht ekotizimlari maydonning 18,52% dan 15,56% gacha qisqarishi va urbanizatsiyalashgan hududlar maydonining 29,09% dan 33,42% gacha ortishi resursbop turlarning eng qulay tabiiy muhitlari degradatsiyasi xavfining kuchayganligini ko‘rsatadi.

3. Komplementarlik tahlili Janubiy O‘zbekiston hududida dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish uchun 7 ta ustuvor hudud aniqlash imkonini berdi. Mazkur hududlarning salmoqli qismi mavjud alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH) tarmog‘i tarkibiga kirmasligi, amaldagi muhofaza tizimi o‘rganilgan turlar yashash muhitlarining reprezentattivligini to‘liq ta’minlamayotganligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar aniqlangan ustuvor hududlarni METH tarmog‘ini takomillashtirish va muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirishda inobatga olish zaruratini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

4. Janubiy O‘zbekiston dorivor o‘simliklari resurs potensialining asosiy yadrosi Lithosols va Calcic Xerosols tipidagi tuproqlar bilan bog‘liqligi hamda mazkur tuproqlar resurs populyatsiyalarining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Dorivor o‘simliklarning asosiy edafik guruhlar litofitlar (10–12 tur), karbonatli tuproqlar kserofitlari (8–10 tur), allyuvial vodiy turlari (4–6 tur), psammofitlar (3–4 tur) va ekologik plastik turlarga (2 tur) bo‘linadi. Olingan natijalar resursbop dorivor o‘simliklarning yaqqol edafik differensiallashganligini hamda resurs potensialining shakllanishida tuproq-ekologik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

5. Ilk bor, biologik xususiyatlari va yig‘ib olinadigan xomashyo tipi bilan farqlanuvchi *Ungernia victoris*, *Ferula tadshikorum*, *Ajuga turkestanica* va *Inula grandis* model turlarining 2021–2025 yillardagi monitoring natijalari asosida ekspluatatsion stressni baholashning uch ballik (γ, β, α) model-tipologik shkalasi ishlab chiqildi. Yer ostki organlari xomashyo sifatida yig‘iladigan turlarda resurs potensialining tiklanishi yer ustki organlari yig‘iladigan turlarga nisbatan sekin

kechishi aniqlandi. Shkala ekspluatatsion bosim darajasini baholashning metodologik asosi sifatida tavsiya etilib, boshqa hayotiy shakli va biologik guruhlarga mansub dorivor o‘simliklarga tatbiq etishda turga xos regeneratsion xususiyatlar asosida kalibrlashni talab etadi hamda Markaziy Osiyoning arid ekotizimlarida dorivor o‘simliklarga ekspluatasion stressni baholashning integrativ vositasi sifatida tavsiya etiladi.

6. Ilk bor, kamyob dorivor o‘simliklar misolida senopopulyatsiyalarning yosh strukturasi bilan resurs potensiali o‘rtasidagi miqdoriy o‘zaro bog‘liqlik aniqlandi. Tabiiy populyatsiyalarning demografik holati tabiiy resurslar barqarorligini baholashning asosiy mezonlaridan biri ekanligi isbotlandi. Chap tomonlama va markazlashgan spektrlar tabiiy qayta tiklanish salohiyatining yuqoriligi va resurs potensialining saqlanishi bilan tavsiflanadi. Biomodal va ayniqsa o‘ng tomonlama spektlarning shakllanishi demografik barqoqlikning pasayishi, tabiiy resurslar hajmining qisqarishi va ularni elsplutatsiya qilish imkoniyatini cheklaydi. Natijalar senopopulyatlarning demografik ko‘rsatkichlari asosida dorivor o‘simliklar resurs potensialini baholashning ilmiy asosi sifatida foydalanish imkoni berdi.

7. Dorivor o‘simliklar resurslaridan foydalanishning amaldagi tizimi ekologik barqarorlik chegaralariga mos kelmaydi va tabiiy populyatsiyalarning degradatsiyasiga olib kelmoqda. Bu holat, ayniqsa, 1 va 4 toida turlariga xosdir. Resurslardan foydalanishni tartibga solishning ekspluatatsion stressni baholash, hududiy differensiallashuv hamda raqamli kadastr va GAP ga asoslangan monitoring tizimlarini joriy etishga tayangan konseptual modeli taklif etildi. Taklif etilgan modelni amaliyotga tatbiq etish ilmiy tadqiqotlarni resurslarni boshqarish tizimiga integratsiya qilishni ta’minlaydi, biologik xilma-xillikni saqlashga, tabiiy populyatsiyalarni tiklashga va farmatsevtika sanoatini o‘simlik xomashyosi bilan barqaror ta’minlashga xizmat qiladi hamda oqilona tabiatdan foydalanishning zamonaviy institutsional asoslarini shakllantiradi.

8. Dorivor o‘simliklar tabiiy resurslarini kompleks baholash, prognozlash va boshqarishning ekogeografik (ELC) va landshaft (GLC), populyatsion demografik, resursshunoslik hamda geoaxborot yondashuvlari integratsiyasiga asoslangan ilmiy konseptsiya ishlab chiqildi. Mazkur konseptsiya mavjud yondashuvlardan farqli ravishda hududning ekologik geterogenligi, senopopulyatsiyalarning holati, resurs potensiali va antropogen bosim darajasini yagona tizimda birlashtirib, Janubiy O‘zbekiston dorivor o‘simliklaridan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va qayta tiklash bo‘yicha ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ
ИНСТИТУТ БОТАНИКИ

МАХМУДОВ АЗИЗБЕК ВАЛИЖОНОВИЧ

АСПЕКТЫ ДИНАМИКИ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ И СТРАТЕГИЯ ИХ СОХРАНЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА)

03.00.05 – Ботаника

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАТЦИИ ДОКТОРА НАУК (DSc)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2025.1.DSc/B244.

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице (www.botany.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	**Тожибаев Комилжан Шаробитдинович** доктор биологических наук, академик
Официальные оппоненты:	**Хожиматов Олимжан Каххарович** доктор биологических наук, профессор
	Усупбаев Адилет Кыдыкбекович доктор биологических наук
	Дусчанова Гулжан Мадримбаевна доктор биологических наук, профессор
Ведущая организация:	**Наманганский государственный университет**

Защита диссертации состоится 30-октября 2026 года в 14^{00} часов на заседании Научного совета DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M при Институте ботаники АН РУз (адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники АН РУз. Тел.: (+99871) 262-37-95, факс (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники АН РУз (зарегистрировано за №90). Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан 12 октября 2026 года.
(реестр Протокола рассылки №29 от 12 октября 2026 года).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI BOTANIKA INSTITUTI

Б.А. Адилов
Заместитель председателя Научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., старший научный сотрудник

Д.Т. Хамраева
В.И.О., Ученого секретаря Научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., старший научный сотрудник

Х.Ф. Шомуродов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время из 390 900 видов цветковых растений, известных современной науке (POWO, 2026), более 50 000 используются в медицинских целях (Latif and Nawaz, 2026). В последние десятилетия наблюдается устойчивый рост спроса на лекарственные средства растительного происхождения. Это объясняется тем, что они относительно безопасные, эффективные и экономически доступные (Njoroge et al., 2010; El-Shabasy, 2016; Qari, 2021). Однако наряду с данной положительной тенденцией около 15 000 видов лекарственных растений находятся под угрозой исчезновения вследствие чрезмерной эксплуатации природных популяций, сокращения естественных местообитаний и воздействия глобальных климатических изменений (Chen, 2016; Mulugeta, 2024). Сложившаяся ситуация свидетельствует о необходимости разработки эффективных территориальных стратегий охраны видов лекарственных растений, оценки их ресурсного потенциала, что определяет актуальность данной проблемы как важного научного направления.

В Центральной Азии в последние десятилетия сформировалось устойчивое научное направление, ориентированное на разработку национальных стратегий по оценке, сохранению и устойчивому использованию ресурсов лекарственных растений, что свидетельствует о переходе от фрагментарных исследований к системному управлению растительными ресурсами на региональном уровне (Abdullina, 2001; Alybaeva, 2006; Atayev, 2012; Hisoriev, 2015). При поддержке международных организаций (FAO, UNEP, GEF) с 2000-х годов в регионе реализуются проекты по сохранению генетических ресурсов лекарственных растений в условиях *in situ* и *ex situ* (UNEP-GEF, 2010). Однако в последние 25 лет в результате несистемного использования природных растительных ресурсов в регионе произошло резкое сокращение ареалов большинства ценных видов лекарственных растений. Данная ситуация наглядно прослеживается на примере *Ferula tadshikorum* Pimenov: в Таджикистане (Hisoriev, 2015), Афганистане (Sharopov, 2019) и Узбекистане (Maxmudov, 2025) площади, обладающие ресурсной ценностью, практически не сохранились. В этой связи особую актуальность приобретают научные исследования, направленные на изучение воздействия антропогенных факторов на биологические объекты, прежде всего на природные ресурсы экономически значимых видов растений, подвергающихся влиянию различных стрессовых факторов.

Территория Узбекистана по своему природному флористическому разнообразию и географическим условиям считается одной из наиболее богатых лекарственными растениями в Центральной Азии (Tojibaev et al., 2022, Ibragimov et al., 2026). Флора Узбекистана насчитывает более 4385 видов сосудистых растений (Sennikov et al., 2016), из которых около 1200 видов обладают лекарственными свойствами (Хожиматов, 2021), а 112 видов включены в официальный фармакопейный список, из которых более 70

широко используются в отрасли (Tojibaev et al., 2024). В настоящее время на территории Южного Узбекистана выявлено более 100 видов лекарственных растений, активно применяемых в народной и современной медицине. Это составляет около 2.5% от общего числа дикорастущих видов флоры страны (Khojimatov, 2023). Вместе с тем в Узбекистане в результате чрезмерной эксплуатации природных ресурсов лекарственных растений наблюдается тенденция к сокращению запасов ряда лекарственных видов, таких как *Helichrysum maracandicum*, *Ungernia victoris*, *Ajjga turkestanica* (Maxmudov, 2025) и др.

В мировой науке имеются значительные пробелы в изучении лекарственных растений, особенно в вопросах динамики природных ресурсов и их сохранения (Takubessi et al., 2025). Большинство исследований сосредоточено в отдельных регионах, тогда как флористический богатые территории Центральной Азии остаются недостаточно изученными (Vihotogbe et al., 2021; Zhang et al., 2024). Ограниченное количество долговременных полевых исследований затрудняет объективную оценку изменений состояния популяций под воздействием климатических и антропогенных факторов. Недостаточно разработаны унифицированные методы оценки ресурсного потенциала, устойчивости и уязвимости лекарственных видов. Во многих исследованиях недостаточно учитываются процессы деградации экосистем, чрезмерного изъятия растительного сырья и изменения землепользования. Отсутствие комплексного подхода к мониторингу, оценке и сохранению лекарственных растений обусловливает необходимость разработки научно обоснованных стратегий их охраны и устойчивого использования.

Сложившаяся ситуация обуславливает необходимость разработки научно обоснованных критериев выделения и системы категоризации ресурсно-ценных лекарственных видов флоры Узбекистана (Maxmudov, 2025), оценки видового разнообразия и распространения лекарственных растений, а также создания цифровых карт на основе анализа экогеографических характеристик (ELC), земного покрова и ландшафтных особенностей (GLC) исследуемого региона. Кроме того, возникает необходимость проведения GAP-анализа эффективности охраны лекарственных растений *in situ*, а также разработки научных основ их территориальной охраны с использованием подхода комплементарности.

В данном направлении в рамках реализации Стратегии «Узбекистан – 2030[1]» Государственной программы «Год охраны окружающей среды и “зелёной экономики”» определён ряд приоритетных задач. В частности, настоящее диссертационное исследование в определённой степени направлено на обеспечение реализации положений Закона Республики Узбекистан от 21 сентября 2016 года № 409 «Об охране и использовании растительного мира», Указа Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Постановления Кабинета Министров Республики

[1] Указ Президента Республики Узбекистан. О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики» от 30.01.2025 г. № УП-16. https://lex.uz/docs/7369703

Узбекистан от 7 ноября 2018 года № 914 «О ведении государственного учёта объектов животного и растительного мира, учёта объёмов их использования и государственного кадастра», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года № 484 «Об утверждении Стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019–2028 годов», а также других нормативно-правовых актов в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

